



UDK: 378.095

Zaxro UMAROVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti, PhD
E-mail: umarova.zakhro@gmail.com,

Farg‘ona davlat universiteti dotsenti I.Siddiqov taqrizi asosida

OLIIY TA‘LIM TIZIMIDA TALABALAR MUSTAQIL TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI

Аннотация

Bugungi kunda sodir bo‘layotgan zamonaviy rivojlanish tendensiyalari oliy ta‘lim tashkilotlaridagi asosiy e‘tiborni “o‘qitish” (teaching) paradigmasidan “o‘rganish” (learning) paradigmasiga o‘tishi bilan xarakterlanadi. Shu bois, ta‘lim olishning turli shakllari, xususan, mustaqil ta‘limni tashkil etish jarayoniga va uning samaradorligini ta‘minlash masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar mustaqil ta‘limni samarali tashkil etish va talabalarning mustaqil tayyorgarligini takomillashtirishda muhim vosita sifatida yoritilgan.

РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

Сегодняшние современные тенденции развития характеризуются смещением основного внимания в организациях высшего образования с парадигмы «обучения» на парадигму «обучения». Поэтому особое значение придается различным формам обучения, в частности, процессу организации самостоятельного образования и обеспечению его эффективности. В данной статье цифровые технологии выделены как важный инструмент эффективной организации самостоятельного образования и улучшения самостоятельной подготовки учащихся.

THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGY IN DEVELOPING STUDENTS SELF-READINESS IN HIGHER EDUCATIONAL SYSTEM

Annotation

Today's modern development trends are characterized by the shift of the main attention in higher education organizations from the “teaching” paradigm to the “learning” paradigm. Therefore, special importance is attached to various forms of education, in particular, to the process of organizing independent education and ensuring its effectiveness. In this article, digital technologies are highlighted as an important tool in the effective organization of independent education and improving the independent preparation of students.

Kalit so‘zlar: gadjet, motivatsiya, mustaqil ta‘lim, mustaqil tayyorgarlik, raqamli texnologiyalar, raqamli kompetentsiya.

Kirish. “Ma‘lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda”[1]. Bo‘ljak mutaxassislarni tayyorlashda va o‘quv jarayoni sifatini oshirishda talabalarning ijodiy faoliyat yuritishi va ularning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradigan mustaqil ta‘lim jarayoni alohida o‘rin tutadi. Sababi “o‘z mehnati bilan olingan bilim juda katta qiymatga ega. Shunday qilib, o‘qitishning muvaffaqiyati talabalarning bilim olishga bo‘lgan munosabati, bilim olishga intilishi, bilim, ko‘nikmalarni ongli ravishda va mustaqil ravishda o‘zlashtirishi bilan belgilanadi”[2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mustaqil ta‘lim va uni tashkil etish masalalari bo‘yicha ko‘plab tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, xorijiy olimlardan M.Knowles, Ch.Hayes, A.Tough, S.Brookfield, H.Long, G.Fischer, E.Scharff, B.Сластенин, А.Айзенберг va boshqalar tomonidan, mahalliy tadqiqotchilari – olimlardan N.Muslimov, O.Qo‘ysinov, SH.Yunosova, N.Xalilov, J.Tolipova, T.Niyazmetova, Z.Nishonova, Z.Umarovalar tomonidan mustaqil ta‘limni tashkil etishning nazariy-metodik asoslari tadqiq etilgan.

Tadqiqotlar davomida mustaqil ta‘lim tushunchasiga ko‘pgina olimlar tomonidan shaklan turlicha ta‘rif berilgan bo‘lsa ham, mazmunan ular bir-biriga yaqindir. Mustaqil

ta‘lim (inglizcha self-education) – o‘qituvchining yordamisiz, har qanday ta‘lim muassasi devorlaridan tashqarida mustaqil ravishda olingan ta‘lim; o‘quv faoliyatining norasmiy individual shakli.

V.A.Slastenin ta‘rifiga ko‘ra “Mustaqil ta‘lim – talabani shunday bilim olish faoliyatiki, bunda uning izchil fikr yuritishi, aqliy va amaliy operatsiyalari hamda harakatlarining izchilligi o‘ziga bog‘liq bo‘ladi”[3].

A.Y.Ayzenberg mustaqil ta‘lim tushunchasini “shaxsning o‘zi tomonidan boshqariladigan va insonning turli xil bilim sohalaridagi intilishlari, qiziqishlari, ehtiyojlarini qondirish, atrofdagi dunyoni bilish, o‘z hayotining mazmunini topishga qaratilgan maqsadli, erkin va mustaqil kognitiv faoliyati” deb talqin qiladi.

Pedagogika fanlari doktori N.A.Muslimovning ta‘kidlashicha, “Mustaqil ta‘lim (avtodidaktika) – bilimlarni o‘zlashtirish, tasavvurlarini rivojlantirish, tushunchalar, ko‘nikma va malakalarni hosil qilish bo‘yicha o‘quv jarayonining subyektiv maqsadiga muvofiq muntazam, mustaqil hamda avtonom faoliyatni tashkil etish demakdir”.

Tadqiqot ishimiz doirasida biz mustaqil ta‘lim tushunchasiga quyidagicha izoh berdik: mustaqil ta‘lim – bu o‘qituvchi tomonidan tashkil etilgan maxsus ajratilgan vaqtga belgilangan didaktik maqsadlar (yangi bilimlarni izlash, ularni anglash, mustahkamlash, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish, bilimlarni umumlashtirish va

tizimlashtirish)ga erishishga qaratilgan talabalarining har qanday faoliyatidir [6].

Talabalarining bilish faoliyatida mustaqil ta'limning o'rni nihoyatda katta, shuning uchun o'qituvchilar tomonidan unga katta e'tibor beriladi. Mustaqil ta'lim, ko'plab olimlarning fikriga ko'ra, talabalarining nazariy va amaliy bilimlarni o'zlashtirishga ongli munosabatini tarbiyalash bilan bir qatorda, mashaqqatli intellektual mehnat ko'nikmasini shakllantiradi.

Oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'lim o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Mustaqil ta'lim jarayonida talabalar kognitiv faoliyatning asosiy usullari, kasbiy yo'naltirilgan vazifalarni hal qilgan holda ilmiy-izlanishli va ijodiy yondashuvli faoliyat olib boradilar.

Pedagogik oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining mustaqil ta'limini samarali tashkil etish uchun:

-mustaqil bilim olishda avvalo, talabalarda mustaqil ishlashga, erkin, ijodiy faoliyat yuritishga va eng asosiysi mustaqil fikrlashga ehtiyojni shakllantirish lozim;

-bo'lajak mutaxassis (pedagog) larning amaliy-kasbiy tayyorgarlik tizimida mustaqil ta'lim olish faoliyatiga ularning professional shakllanish omili sifatida qarash;

-mustaqil ta'lim jarayonida ularni amaliy ta'lim olish faoliyatiga yo'naltirishga asosiy e'tiborni qaratish;

-talabalarining mustaqil ta'limini tashkil etishda ularning psixo-fiziologik xususiyatlari, axborotlarni idrok etish qonuniyatlarini inobatga olgan holda mediaresurslar va raqamli texnologiyalar vositasida talabalarining mustaqil tayyorgarligini takomillashtirish tadqiqot ishimizning zaruratini asoslaydi va mazkur tadqiqotni amalga oshirish uchun obyektiv omil va zamin bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Talabalarining mustaqil ta'limini tashkil etish o'qituvchi tomonidan sezilarli tashkiliy va uslubiy ko'makni talab etadi. Hatto yetarli miqdordagi darsliklar, qo'llanmalar va turli internet, radio va televizor kabi ma'lumot manbalari mavjud bo'lishiga qaramay, talabaga u bilan bevosita interaktiv aloqada bo'la oladigan, xato va kamchiliklarini nazorat qilib, talabaga ularni anglashga, mustaqil tuzatish imkonini beradigan muhitni yaratishi lozim. Bevosita talabalarining mustaqil ta'limini tashkil etish va uni amalga oshirish jarayonning samaradorligi mustaqil ishlash ko'nikmalarini egallash yo'lida faol harakatni ta'minlovchi yondashuvlari hamda metodikasini to'g'ri tanlanganida ekanini unutmash kerak.

Talabalarining mustaqil tayyorgarligini takomillashtirishda raqamli texnologiyalarning roli katta. Bugungi kunda pedagogdan talab etilayotgan asosiy funktsiya ya'ni fasilitatorlik funktsiyasi, aynan raqamli texnologiyalar orqali amalga oshirilib, talabalarining mustaqil ta'lim jarayonida faol ishtirok etishlarini ta'minlash va mustaqil ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etishda ko'rinadi.

XXI – asr raqamli texnologiyalar asri, raqamli qurilmalar, gadgetlar va ilovalarning keng tarqalganligi esa o'qituvchi va talabalardan raqamli kompetensiyani rivojlantirishni talab qiladi.

Raqamli texnologiya ta'lim sohasida yangi tushuncha va g'oyalarni tushuntirish va modellashtirishda yordam berish imkoniyatiga ega. Shuningdek, raqamli texnologiya talabalarining auditoriya ichida ham, tashqarisida ham kechadigan ta'lim amaliyotining sifatini oshirish imkoniyatiga ega.

Raqamli texnologiyalar yordamida mustaqil ta'lim jarayonini 24/7 tarzida tashkil etishga erishish mumkin. Talaba istalgan vaqtda, istalgan qurilmasi orqali, hattoki, o'z uyidan turib mustaqil o'qib-o'rganishi mustaqil ta'lim jarayonining samaradorligini oshishiga ta'sir etadi.

Raqamli texnologiyaning ba'zi shakllari, shuningdek, o'qituvchilarga amaliyotni samarali moslashtirishga imkon

beradi, masalan, talabalar muvaffaqiyatga erishgan sari savollarning qiyinligini oshirish yoki talabalar yangi ko'nikmalarni qo'llashlari kerak bo'lgan yangi kontekstlarni ta'minlash orqali.

Demak, raqamli texnologiyalar orqali talabalar tomonidan ularning o'z tashabbusi asosida individual mustaqil ta'lim trayektoriyasini tuzish va uni boshqarishini ta'minlashga erishish mumkin. Talaba raqamli texnologiyalar orqali nimani o'rganishni, uni qanday o'rganishni, shuningdek, qaysi vaqtlarda o'rganishni vaqt me'yorlarini belgilashi orqali doimiy o'z ustida ishlab turishini, hattoki, "aqlli raqamli texnologiyalar" talabalarga mustaqil ta'lim jarayonlarida "virtual yordamchi" sifatida ishtirok etadi.

Mustaqil ta'limda foydali manbaalarni izlashda qidiruv amaliyotini qo'llab-quvvatlash va o'z-o'zini tekshirish uchun raqamli texnologiyadan foydalanish, hattoki mustaqil ta'lim jarayoniga geymifikatsiya elementlarini olib kirishda, mustaqil ta'lim oluvchi talabalar o'rtasida o'zaro muloqotni ta'minlashda raqamli texnologiyalar qulay vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xorijiy amaliyot tahlili va tadqiqotlarimiz natijasiga ko'ra talabalarining mustaqil ta'limini qo'llab-quvvatlovchi bir qator strategiyalar mustaqil ta'lim samaradorligini oshirib, talabalarining mustaqil tayyorgarligini takomillashtirishga xizmat qiladi. Xususan, talabalararo va o'qituvchi – talaba o'rtasida muloqotni rivojlantirish, ayniqsa, mazkur muloqotni raqamli texnologiyalar orqali 24/7 shaklda olib borish katta natija beradi. Bu talabalarga o'rganish bosqichlari haqida ko'proq xabardor bo'lib, o'z ta'lim uslublarini tushunishga, shuningdek, talabalar va o'qituvchilarga o'z fikrlarini real vaqt rejimida istalgan joydan turib baham ko'rishga yordam beradi. Bundan tashqari, talabalarining o'zaro bir-biri bilan muloqoti hamda fikrlar almashinuvi sodir bo'ladi.

Talabalarining bajargan topshiriqlari bo'yicha bildirilgan fikr-mulohazalar ularning mustaqil ishlashga bo'lgan ishonchini oshirishi va mustaqil ta'limning aks ettiruvchi jihatini rivojlantirishga yordam beradi, natijada talaba olgan feedbacklari orqali o'zi xulosa chiqarishi va o'zini-o'zi baholashga erishiladi [7].

O'qituvchi tomonidan talabalarga ichki va tashqi fikr-mulohazalardan foydalanishga yordam berish orqali talabalar o'z-o'zini nazorat qilishga undash – talabalarining mustaqil tayyorgarligini takomillashtirishga erishish uchun samarali strategiyalardan biri hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatdiki, bugungi kunda raqamli texnologiyalar orqali real vaqt rejimidagi ta'lim ishtirokchilari o'rtasidagi muloqot mustaqil ta'lim jarayonining samaradorligini oshirib, talabalar mustaqil tayyorgarligini takomillashtirishda foydali rol o'ynashini isbotladi, chunki:

- ichki va tashqi feedbacklar orqali o'z-o'zini oson baholash va xulosa chiqarish imkoniyatlarini taklif qilish;
- mustaqil ta'lim jarayonida axborot almashinuvi tezligini oshirish;
- sog'lom raqobat muhitida talabalarining mustaqil ta'lim natijalari bilan o'zaro musobaqalashishi orqali o'z ustida doimiy ishlash hissinini oshirish;
- raqobat bilan bir vaqtda talabalarining bir maqsad yo'lida, ya'ni mustaqil o'rganish jarayonida o'zaro ko'maklashish muhiti va tengdosh-tengdoshga (peer to peer) ta'limni amalga oshirish;
- talabalar o'rtasida hamda talaba va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro aloqa uchun vositani taqdim etdi.

Xulosa. Mustaqil ta'limda o'quv kontenti xuddi taom singari uni qanchalik ishtaha bilan iste'mol qilinsa, o'rganish jarayonining mazmuni, ichki qiymati qanchalik aniq va yaqqol bo'lsa, shuncha yaxshi qabul qilinadi. Mustaqil ta'lim samaradorligi ta'lim oluvchilarning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasiga bevosita bog'liq. Talaba o'zi

uchun qiziq bo'lgan, uning qiziqishlari va shaxsiy qarashlariga eng mos keladigan, o'ziga jalb etadigan ma'lumotlarni yaxshiroq qabul qiladi [8]. Mustaqil ta'limning muhim xususiyati ham aynan shunda, mustaqil izlanish va fikrlashda, erkin tanlangan bilim sohasini erkin o'zlashtirishda bilinadi [5].

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning barcha uchun qiziqarli va jozibali ekanligini inobatga olsak, mustaqil ta'lim jarayoniga ta'limiy maqsadlar asosida raqamli qurilma va gadjetlardan foydalanish talabalar o'quv motivatsiyasini oshirishda eng yaxshi yechimlardan biri deb ayta olamiz.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. "Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir" mavzusidagi nutqi / <http://www.uza.uz>
2. Миронова Е.Д. Современные информационные технологии как средство повышения эффективности обучения // Инновационное образование и экономика. 2015. Т. 1. № 19 (19).
3. Сластенин В.А. О моделировании образовательных технологий. // Наука и школа. -2000.-№4.
4. Muslimov N.A., Umarova Z.A. The Role of Media Resources in the Process of Self-Education // International Journal Papier Public Review Volume 2 Issue 1, -2021.
5. Umarova Z.A. Media resources: as an effective tool in modern education // The American Journal of Social science and Education innovations. Volume -II, Issue VII, 2020. -P. 239-245.
6. Umarova Z.A. Mediaresurslar vositasida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish metodikasini takomillashtirish: p.f.f.d. dissertatsiyasi. – T.:2021.
7. Umarova Z. Effectiveness of organizing students' self-education with the facilities of media resources in educational media environment //Revista geintec-gestao inovacao e tecnologias. – 2021. – T. 11. – №. 2. – С. 756-764.
8. Умарова З. А. Эффективность организации самообразования в электронной образовательной медиа среде //International conference on Language and Literature Proceeding. – 2022. – С. 44-46.